

*- Ommaviy axborot vositalari va Telegram-kanallarda ko‘plab zo‘ravonlik, shavqatsizlik, ma‘naviy buzuvchilik, pornografiyani targ‘ib qiluvchi materiallar tarqalyapti. Biz ularning egalarini aniqlamoqdamiz va tegishli ogohlantirish beryapmiz. Lekin keyingi ko‘riladigan choramiz jiddiy emas. Ya‘ni o‘sha materialni o‘chirish, cheklash yoki bunday holat qaytarilmasligi bo‘yicha hech qanaqa sanksiyalar yo‘q... Shuning uchun, avvalo, ushbu masalada ma‘muriy javobgarlik belgilansa, yaxshi bo‘lardi, - dedi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xo‘jayev Oliy Majlis Senatining 26-yalpi majlisida.*



*“uz” domenidagi 9 ming 500 ta veb-saytda behayolik, ma‘naviy buzuvchilik, zo‘ravonlik, shavqatsizlik, qimor, tavakkalchilik, alkogol va tamaki mahsulotlarini reklama qilish yoki ularni targ‘ib qiluvchi ma‘lumot va axborotlar aniqlangan.*



*2022-yilning o‘tgan 5 oyida efirga uzatilayotgan 6 ta davlat, 3 ta nodavlat telekanalda 188 ta axborotda yoshga oid tasnif qo‘yilmagan.*



*Pornografiya, zo‘ravonlik, behayolik, narkoxizmatlarni targ‘ib qiluvchi 3 ming 134 ta xorijiy veb-sayt borligi ma‘lum.*



*2021–2022-yillarda veb-saytlarda yoshlarimizga yot, ma‘naviy-ma‘rifiy va diniy adovatni qo‘zg‘atuvchi 18 mingdan ortiq qonunbuzarlik aniqlangan.*